



O'ZBEK VA FRANSUZ MASALCHILIGI LAFONTEN VA GULXANIY MASALLARI MISOLIDA

Hayitboyeva Dilnoza Ne'mat qizi

O'zMU talabasi

hayitboyeva03@gmail.com

97-120-66-61

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8063260>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-June 2023 yil

Ma'qullandi: 18-June 2023 yil

Nashr qilindi: 21-June 2023 yil

KEY WORDS

*masal, naql, dramatik holat,
didaktik xususiyat, hajv va
yumor..*

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek va fransuz masalchiligining mohir ustalari Lafonten va Gulxaniy masallarida qo'llanilgan o'ziga xos ma'no-mazmunga ega bo'lgan masallarining leksik va semantik jihatdan tahlil qilinadi.

Masal (arabcha –namuna, misol)-didaktik adabiyot janri. Ta'limiy xarakterdagi aksariyat kichik, she'riy ba'zan nasriy shakldagi asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Masalning mazmuni majoz asosiga quriladi. Uning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, novella yoki latifalarga yaqin bo'lib xotimasi, ta'limiy xulosasi maqol, hikmatli so'z va iboralar tarzida bo'ladi. Masal janri unsurlari juda qadimdan ma'lum. Uning na'munalari «Kalila va Dimna» tarkibida uchraydi.

Fransuz adabiyotida Lafonten, o'zbek adabiyotida Gulxaniy masal janrida mohirlik bilan ijod etganligi manbalardan ma'lum.

Taniqli fransuz masalchisi Lafonten masallari dunyo adabiyoti tarixida muhim o'rin egallaydi. Ma'lumki, Lafonten o'z asarlarini sharq hikmat-u naqlari asosida yozgan. Xususan, Sa'diy Sheroziy naqlaridan o'z masallarida foydalangan va Lafontenning masal janridagi asarlari ko'proq shuhrat qozongan. Lafonten masallari orqali o'tkir hajvchi, yirik mutaffakir, adabiyotda uyg'onish davri an'analarning davomchisi sifatida maydonga chiqdi. Buyuk adibning antik davr g'arb hamda Sharq adabiyotida «Kalila va Dimna» shuningdek, xalq donishmandligidan ruhlanib yaratgan masallari zamonaviyligi o'tkir hajvchi, tavsiflarning yorqinligi bilan jahon satirik adabiyoti xazinasini boyitdi. Sharqda esa Muhammadsharif Gulxaniy Qo'qon adabiy muhitida masal janrida go'zal va noyob asar yaratishga muvaffaq bo'lgan. Adib tabiatan hazil-mutoyibaga usta, xalq urf-odatlarini, til boyliklarini, maqol, matal, naql va rivoyatlarini, hajvni chuqur bilgan shaxs bo'lgan. Shoirning devonafe'lligi va olovqalbligi sababli o'ziga Gulxaniy so'zini taxallus qilib olganligi bir qator yozuvchilarning asarlarida qayd qilib o'tiladi.

Adibning qissa-hikoyatlari undagi majoziylik, qushlar, hayvonlar tilidan so'zlash jihati sharqda keng tarqalgan «Kalila va Dimna» asariga yaqinlashadi. Gulxaniy nomini

avloddan avlodga yetkazib kelayotgan va adabiyotimiz tarixida unga abadiy joy olib bergan yodgorlik, bu – «Zarbulmasal». «Zarbulmasal» shu davrdayoq butun dunyo qalamkashlarining e'tiborini o'ziga tortgan. Adibning maqol, matal, va xalq iboralarini o'z o'rnida uzukka ko'z qo'ygandek topib foydalanishi, ulardan obrazlar xarakteri hamda asr g'oyasini ochishga xizmat ettirganligi, hazil-mutoyibaga, qochirmalarga boyligi Gulxaniy uslubini belgilovchi asosiy fazilatdir. Ikki millatning ikki buyuk masalchisi har xil davrlarda yashab ijod qilgan bo'lsalar ham ular ijodining o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Gulxaniy o'zining bir qator masallarida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashni badiiy obrazlar asosida yoritib bergan. Adibning «Toshbaqa va Chayon» masalida do'stlik, sadoqat, odamlarga shafqatli va muruvvatli bo'lish kabi fazilatlar ulug'lanadi, xiyonat, firibgarlik kabi salbiy xislatlar qoralanadi. Sangpush (Toshbaqa) va Aqrab (Chayon) haqidagi tamsiliy hikoya Gulxaniygacha bo'lgan forsiy va turkiy adabiyotlarda ham uchraydi. Biroq, Gulxaniy bu sujetga ijodiy yondashadi. Chayon va Toshbaqa obrazlariga xos tasvirlarni, dramatik holatlarni keskinlashtirdi. Masalda aytilishicha, Iroqdan Hijozga qarab yo'lga chiqqan Toshbaqaga Chayon hamroh bo'ladi. Toshbaqa hamrohlik-do'stlik qoidalariga amal qilib, yo'lda Chayonning holidan xabardor bo'lib boradi, unga yordam beradi. Toshbaqa yo'lda uchragan daryodan osonlikcha suzib o'tib narigi sohildan qarasa, hamrohi Chayon hamon daryo chetida turardi. Shunda Toshbaqa yordamga oshiqadi. Chayonni yelkasiga o'tqazib daryodan olib o'tmoqchi bo'ladi. Bir oz fursatdan keyin Toshbaqa Chayon yelkasida o'tirib, unga o'z nishini sanchayotirganligiga guvoh bo'ladi.

Toshbaqa hayron bo'lib, Chayondan so'raydi: «Bu nima qilganing?» Chayon javob beradi, «Bilganing yo'qmiki, aqrabning (chayonning) vazifasi nish urmoqdir. Xoh do'st ko'ksinadir, xoh dushman orqasina». Shunda Toshbaqaning achchig'i chiqib, suvga bir sho'ng'igan edi, Chayon to'liqida g'arq bo'lib, jon berdi.

Gulxaniy qissadan hissa chiqarib, kishilarni hushyorlikka, odamlarni yaxshilab, tanishga undab «Asilning xatosi bo'lmas, nojinsning oshnosi bo'lmas», «Bo'ynida illati borning oyog'i qaltiraydi» degan maqollarni keltiradi.

Lafonten ham o'zining bir qator masallarida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashni, shu davrdagi insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatini, shu borada bir-birlariga nisbatan razillikni, zulmni ishlatganlari, razolatga qo'l urushlari kabi jarayonlarni badiiy obrazlar asosida yoritib bergan. Masalan: adib o'zining «Le Corbeau et le Renard» (Qarg'a va Tulki) masalida tulkinning o'z maqsadiga erishish uchun qilgan ayyorligini ko'rishimiz mumkin.

Maître Corbeau, sur un arbre perché,
Tenait en son bec un fromage.
Maître Renard, par l'odeur alléché,
Lui tint à peu près ce langage :
"Hé ! bonjour, Monsieur du Corbeau.
Que vous êtes joli ! que vous me semblez beau !
Sans mentir, si votre ramage
Se rapporte à votre plumage,
Vous êtes le Phénix des hôtes de ces bois.

« Tulkining qilmoq ishi ayyorlikdir»- deydi dono xalqimiz. Birovning o'ljasi ko'z olaytirgan tulki oxir-oqibat ayyorligi tufayli o'z niyatiga erishgan. Albatta ushbu masal orqali adib shu davrda hukm surgan voqelikni, insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini « Qarg'a va Tulki » misolida yoritib bergan.

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, ikkala adib turli makon va zamonda yashab ijod qilishgan bo'lsalarda, ularning maqsad yo'li bir xil, ya'ni insoniy fazilatlarni yo'qotmaslik, odamlarga oq-qorani ajratishni o'rgatish bo'lganligini va shuning uchun ham didaktik xususiyatga ega bo'lgan yuqorida keltirilib o'tilgan ijod namunalarida ko'rish mumkin. Bu kabi asarlar kelajak avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonqul Orzibekov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 2006. 160-b.
2. Fayzulla Boynazarov. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2006. 148-b
3. Xudoyqul Ibragimov. Ulug'bek Mansurov. Ahmadali Mamadaliev Fransuzcha-O'zbekcha lug'at. Toshkent. 2008
4. Z.M.Ma'rufov. O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva « Rus tili » nashriyoti 1981.
5. Hayitboyeva, D., & Shaxobiddinova, S. (2023). EKOTURIZM TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 101-104.
6. Hayitboyeva, D., & Shaxobiddinova, S. (2023). EKOTURIZM TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 4), 107-110.
- Shaxobiddinova, S. M. Q., & Hayitboyeva, D. N. M. Q. (2022). LINGVOKULTUROLOGIK TERMINLAR LUG'ATINING NAZARIY ASOSLARI. Academic research in educational sciences, 3(5), 1338-1343.
8. Shaxobiddinova, S. M., & Ne'mat qizi Hayitboyeva, D. LINGVOKULTUROLOGIK TERMINLAR LUG'ATINING NAZARIY ASOSLARI.
9. Hayitboyeva, D., & Shakhobiddinova, S. (2023). TOURISM ECONOMICS AND MANAGEMENT. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 279-283.
10. Hayitboyeva, D., & Shakhobiddinova, S. (2023). SPECIFIC FUNCTIONS OF THE MODERN TOURIST MARKET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 275-278.
11. Jumanazarova, Hayitboyeva H. D. (2023). ZAMONAVIY DUNYODA FRANSUZ TILI.
12. Shaxobiddinova, S., & Hayitboyeva, D. (2022). FRENCH NATIONAL CULTURAL EXPRESSIONS. Science and Innovation, 1(2), 186-190.